

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
KENGASHINING 9-SON MAJLIS BAYONIDAN
KO‘CHIRMA

Toshkent shahri, rektorat
ARM majlislar zali

2025-yil 1 iyul,
soat 11:00

O‘zbekiston Milliy universitetiga qarashli Talabalar turar joylarida yashaydigan talabalarga TTJ uchun to‘lovdan imtiyoz joriy etish to‘g‘risida.

***Eshitildi:* prorektor J.U.Muxammadiyev**

Universitetga qarashli Talabalar turar joylari (TTJ)ga 2025/2026 o‘quv yilida joylashgan talabalarning TTJda yashaganlik uchun shartnomada ko‘rsatilgan to‘lovlarni amalga oshirishda quyidagi toifaga kiruvchi talabalarga imtiyozlar qo‘llash va to‘lovdan ozod qilish bo‘yicha xulosani Universitet rektorining 2019-yil 2-dekabrda 01-989-sonli buyrug‘ining 1-Ilovasi bilan tasdiqlangan “TTJ to‘g‘risidagi Nizom”ga hamda amaldagi me‘yoriy hujjatlarga rioya qilgan holda universitet Kengashi tomonidan tasdiqlab berish taklifi kiritilmoqda.

1. Talabalar turar joylarida yashovchi va 100 % to‘lovdan ozod etiladigan talabalar toifasi:

1.1. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari. “TTJ to‘g‘risidagi Nizom”ning 4-bob 27- bandiga asosan);

1.2. Chin yetim talabalar “TTJ to‘g‘risidagi Nizom”ning 4-bob 27- bandiga asosan);

1.3. 1-guruh nogironligi bo‘lgan talabalar “TTJ to‘g‘risidagi Nizom”ning 4-bob 27- bandiga asosan).

2. Talabalar turar joylarida yashovchi va 25 % to‘lovdan ozod etiladigan talabalar toifasi:

2.1. 2-guruh nogironligi bo‘lgan talabalar “TTJ to‘g‘risidagi Nizom”ning 4-bob 27- bandiga asosan).

3. Boshqa toifadagi barcha O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan universitet talabalariga to‘liq miqdordagi to‘lovlarni amalga oshirishi hamda TTJlarga oylik to‘lov 300 000 (uch yuz ming) so‘m miqdorida belgilanishi taklifi kiritildi.

4. Universitetga qarashli TTJda turuvchi Xorijiy mamlakatlar fuqarolari uchun 50\$ AQSH dollari miqdorda belgilanishi taklifi kiritildi.

Kun tartibida ko‘rilgan masala bo‘yicha Kengash

QAROR QILADI:

1. Universitetning birinchi prorektor J.U.Muxammadiyevning “O‘zbekiston Milliy universitetiga qarashli Talabalar turar joylarida yashaydigan talabalar uchun to‘lovdan imtiyoz joriy etish to‘g‘risida”gi axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Yuqorida qayd etilgan toifadagi Universitetga qarashli TTJda yashovchi talabalarga 2025/2026 o'quv yili davomida tegishli tartibda imtiyozlar joriy etilsin.

3. Boshqa toifadagi barcha O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan Universitet talabalariga to'liq miqdordagi to'lovlarni amalga oshirishi hamda TTJlarga oylik to'lov 300 000 (uch yuz ming) so'm miqdorida belgilansin.

4. Universitetga qarashli TTJda turuvchi Xorijiy mamlakatlar fuqarolari uchun 50\$ AQSH dollari miqdorda belgilansin.

5. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash prorektorlar J.U.Muxammadiyev va V.U.Yodgarovlar zimmasiga yuklatilsin.

Kengash kotibi



Q.Baymirov